

DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINING MOLIYALASHTIRILISHI VA ULARNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

<https://orcid.org/0009-0008-0606-9398>

bakhronovashakhodat@gmail.com

Yandasheva Nozanin Nodirbekovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

nozaninyandasheva2703@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Davlat –xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish manbaalari va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri tahlil qilib o’rganilgan. Innovatsion sektorda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalarini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari yoritilgan.

DXSh sohasida olib borilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi bilan bog’liq masalalar tahlil qilingan. Soha rivojlanishi uchun to’sqinlik qilayotgan muammolar ko’rsatib o’tilgan. Mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini takomillashtirish uchun davlat-xususiy sherikchiligi loyihalaridan foydalanish taklif etilgan. Iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiyaviy salohiyatini oshirish asosida sohani barqaror rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: DXSH xaridlari, iqtisodiy o’sish, investitsion faoliyat, xususiy tadbirkorlik, biznes inkubatorlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi, Innovatsion loyihalar, loyiha riski, innovatsion texnologiyalar, moliyalashtirish manbaalari

Аннотация: В статье анализируются источники финансирования проектов государственно-частного партнерства и их влияние на экономику страны. Выделены основные направления развития проектов государственно-частного партнерства (ГЧП) в инновационном секторе.

Анализируются вопросы, связанные с реформами, проводимыми в сфере ГЧП и инновационного развития национальной экономики. Обозначены проблемы, сдерживающие развитие отрасли. Для улучшения инновационного развития экономики страны предлагается использовать проекты государственно-частного партнерства. На основе повышения инвестиционного потенциала отраслей экономики сделаны предложения и рекомендации по устойчивому развитию отрасли.

Ключевые слова: ГЧП-закупки, экономический рост, инвестиционная деятельность, частное предпринимательство, бизнес-инкубаторы, механизм государственно-частного партнерства, Инновационные проекты, проектный риск, инновационные технологии, источники финансирования.

Abstract: The article analyzes the sources of financing of public-private partnership projects and their impact on the country's economy. The main directions of development of public-private partnership (PPP) projects in the innovation sector are highlighted.

The issues related to the innovative development of the national economy and the reforms being carried out in the PPP sector are analyzed. The problems that hinder the development of the sector are indicated. The use of public-private partnership projects is proposed to improve the innovative development of the country's economy. Proposals and recommendations are given for the sustainable development of the sector based on increasing the investment potential of economic sectors.

Key words: *PPP procurement, economic growth, investment activity, private entrepreneurship, business incubators, public-private partnership mechanism, innovative projects, project risk, innovative technologies, financing sources*

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasida iqtisodiy va moliyaviy sohalarda izchil islohotlar amalga oshirish yo'lida eng ilg'or xalqaro tajribalarga tayanmoqda, eng asosiysi mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatida tobora yuqori mavqega ega bo'lib bormoqda va bu o'z navbatida milliy iqtisodiyotimizning ko'plab jabhalarida xorijiy sarmoyadorlarni kirib kelishiga zamin yaratadi. Xalq farovonligiga erishish uchun eng asosiy vgazifalarda biri uzoq muddatli iqtisodiy o'ishni ta'minlash lozim.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan bilishimiz mumkinki, bunday iqtisodiy farovonlikka erishishda davlat va xususiy sektorni munosabarlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Bunday munosabatlarning namoyon bo'lish shakllaridan biri davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikdir. Ma'lumki, davlat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etishning asosiy ichki manbalari, avvalo, shu mamlakatda faoliyat yuritayotgan davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlaridir.

Jahon mamlakatlarida mavjud bo'lgan davlat va xususiy sheriklik munosabatlarining mohiyati, xususiyatlari, tamoyillari, rivojlanish tarixi hamda huquqiy asoslarini o'rganish va ularni mamlakatimizda takomillashtirish bizning oldimizga qo'yilgan vazifalardan biridir. Mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari kundan-kunga rivojlanib borayotgani ushbu sohada olib borayotgan ilmiy ishlarimizning naqadar dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

Mamlakat infratuzilmasini rivojlantirishga oid loyihalarda xususiy investorlarining qiziqish darajasini pastligi, investitsiyalarining katta ulushi davlat hissasiga to'g'ri kelayotganligi bu sohada olib borilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligini ifodalaydi. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining mamlakatimizda kundan kunga taraqqiy etib borayotganligi bu sohada qilinayotgan ilmiy tadqiqotlarimizni ahamiyatini belgilaydi.

Mamlakatimizda Davlat va xususiy sektorning o‘zaro teng manfaatli hamkorligining tashkil etilishi va iqtisodiyotning har bir xo‘jaligini samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib kerakli taklif va tavsiylar berish hamda kelajakda ijtimoiy ma‘suliyatini oshirishiga xizmat qilishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining amalga oshirilishi sheriklikdagi tomonlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning samarali yo‘li ekanligini ifodalab berish.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida minimal kutilayotgan daromadlilikni belgilash xususiy investor uchun loyihada ishtirok etishda bitta stimulyazifasini bajaradi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining shartnoma muddati loyihadan kutilayotgan daromadlilik va kapital bahosiga o‘zini ta‘sirini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari bo‘yicha bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar izlanishlar olib borgan. Ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish, qurish va boshqarishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan davlat idorasi va xususiy korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga olgan davlat xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlarining ijobiy jihatlari iqtisodiyotni rivojlantirishda hamda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashda qulay moliyalashtirish shakllaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish va bunda davlatxususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish [1], hamda, davlat va biznesning hamkorligini zamonaviy shakllarda tashkil etish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni o‘zaro manfaatli sharoitlarda tezkorlik bilan hal etish, shuningdek, davlatxususiy sheriklik tizimini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishni talab etmoqda. Bu esa davlat va xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiytadqiqotlarni keng amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi. Ilmiy muammolarni qo‘yilishi. Davlat va xususiy sheriklik (DXSh) “xususiy sherik va davlat o‘rtasida davlat mulki yoki xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha uzoq muddatli shartnoma bo‘lib, bunda xususiy tomon muhim ish haqi to‘lovi, faoliyat natijasi bilan bog‘liq risk va boshqaruv mas‘uliyatini o‘z zimmasiga oladi” deb ta‘riflanadi. [2] (Jahon banki, 2019 yil).

Mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muhit va yaratilgan shartsharoitlar davlat-xususiy sheriklik amaliyotini rivojlantiradi. S. Elmirezayev va N. Shavkatov (2019) ilmiy izlanishlarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining xorij tajribasini o‘rgangan. “Mamlakatimizning iqtisodiy o‘sishida to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan asosiy

omillar transport, energetika, kommunal xizmatlar kabi infratuzilma tarmoqlarining yetarlicha rivojlanmaganligidir. Shuningdek, ushbu tarmoqlarda infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha zarur investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarning yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish darajasining pastligi asosiy muammolardan hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etishda dunyo amaliyotida eng samarali usullardan biri davlat-xususiy sheriklik asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi" [3]. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining infratuzilmani rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati mazkur amaliyotning kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Zamonaviy g'arb iqtisodchilari esa, MDH davlatlariga qaraganda bu sohada ancha oldinroqilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borishgan. Rivojlangan davlatlar amaliyotida DXShning ancha oldinroq kirib kelganligi bois, bu borada yuzaga kelgan muammolarning mavjudligi DXShning asosiy xususiyatlari va tamoyillarini batafsil o'rganishga va bayon etishga imkon yaratadi.

R.Normyentning fikriga ko'ra, AQShdavlat-xususiy sektor hamkorligi bo'yicha milliy kengashning ijrochi direktori DXShhar qanday darajadagi davlat tuzilmasi va xususiy sektorni tashkil etish o'rtasidagi shartnoma hisoblanadi. Ushbu kelishuv orqali har bir sektorning resurslari, aktivlari va xizmatlarini yoki jamoat foydalanish obyektlarini yaratish maqsadida bir-birini to'ldiradi. Resurslarni almashish bilan bir qatorda, har bir tomon yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy) xavf va foydalarni baham ko'radi [4].

Nufuzli reyting agentligining nashrlarida "Standard & Poor's" reyting agentligi tomonidan, DXSh–xavf va daromadlarni taqsimlash, shuningdek resurslar va vakolatlarni birlashtirishga asoslangan xususiy va davlat sektori o'rtasida har qanday o'rta yoki uzoq muddatli bitim sifatida tavsiflanadi. Amerikalik olim P.Rosenau (P.Rosenau) tadqiqotlariga ko'ra, DXSh–xususiy va davlat sektorlari muvaffaqiyatsizliklar oldini olish, sinergetik ijobiy ta'sir olish hamda har ikki tomonning eng yaxshi fazilatlarini birlashtirish mumkin bo'lgan hamkorlikning huquqiy shakli sifatida asoslagan [5].

METODOLOGIYA

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari samaradorligini va ularning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni hamda o'ziga xos xususiyatlari bilan birga har tomonlama tahlil qilish uchun bir nechta tahliliy usullardan foydalanildi. Ma'lumotlarning aksariyati miqdor ko'rinishida bo'lganligi uchun asosan statistik ma'lumotlar solishtirma usulida tahlil qilindi. Tadqiqot olib boorish jarayonida birinchi navbatda turli xil ta'sir etuvchi omillar o'rganildi va tasvirlash uchun sifatli usullar bilan to'ldirilgan miqdoriy usullar qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi natijasida davlat va xususiy sector o'rtasida iqtisodiy munosabatlar ham shakllana boshlaydi. Shu munosabatlardan biri bu davlat xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalarni tushunamiz. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) sifatli davlat xizmatlari bo'lib bir qancha sohalarni qamrab olgan. DXSH modellari ijtimoiy ahamiyatga molik loyiha va dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat sektori va xususiy korxonalarining foyda olishga qaratilgan iqtisodiy hamkorligi hisoblanadi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi turli mamlakatlardagi DXShlarning tabiati, xususiyatlari, tamoyillari, tarixiy rivojlanishi va huquqiy asoslarini o'rganib ularni mamlakatimizda joriy etish bo'yicha taklif va mulohazalarni bildirishdan iborat. Mamlakatimizda DXSh munosabatlarining davom etayotgani bu boradagi tadqiqotlarimiz dolzarbligi va dolzarbligini ta'kidlamogda.

Agar bu loyihalar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muvafaqiyatli bo'digan bo'ladiganligiga amin bo'lsak, bu sohani yanada rivojlantirish, uni kengaytirish uchun qo'shimcha qonun va qaror qulayliklar yaratish takliflarini ishlab chiqish lozim.

Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining shakllanishi va uning ilmiy nazariy va me'yoriy huquqiy asoslari.

Iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy loyihalar samaradorligini ta'minlash orqali aholiga qulaylik yaratib berish davlatning funksiyalaridan hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishida davlat tomonidan davlatxususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish ijtimoiy loyihalar samaradorligini oshiradi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida nafaqat ijtimoiy samaradorlikka erishiladi, balki iqtisodiy va ekologik jihatdan ijobiy natijalarga erishish imkoni mavjud. Shu sababli iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasidan qat'iy nazar aksariyat mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini kengaytirishga harakat qilinmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining xususiyatlari hamda milliy amaliyotda mazkur amaliyotni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarni SWOT tahlili yordamida amalga oshiramiz.

1 jadval

DXSH loyihalarini amalga oshirishning ijtimoiy hayotga tadbiiq etish holatining SWOT tahlili


STRONGIES:	WEAKNESSES:
<ul style="list-style-type: none"> • Hukumat nazorati • Qulay loyihani tanlash • Samarali boshqaruv • Shartnoma asosida boshqarish • To'lov tizimi 	<ul style="list-style-type: none"> • Tomonlarning majburiyatlari • Boshqaruvning bo'linishi • Bir tomondagi yuqori risk ikkinchi tomonga ham ta'sir qilishi

<ul style="list-style-type: none"> • Barqaror rivojlanish • Innovatsiyalar 	
OPPORTUNITIES	THREATS
<ul style="list-style-type: none"> •Moliyalashtirishdagi sheriklik •Barqaror siyosiy muhit 	<ul style="list-style-type: none"> •Hukumat qo'llabquvvatlashi •Huquqiy asoslar • Ijtimoiy qo'llabquvvatlash •Moliya bozori

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bu davlat va xususiy bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatning amalga oshirilishi, shuningdek, davlat organlari va davlat sektori tomonidan xususiylashtirilmaydigan xizmatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, ko'priklar, magistrallar va quvurlar kabi. Bu munosabatlar, shuningdek, quvurlar, aeroportlar va portlar kabi strategik aktivlarni xususiy sektorga uzoq muddatli ijaraga berishni ham qamrab oladi. Bunday hamkorlikning maqsadi mintaqada umumiy iqtisodiy manfaatlarni ilgari surish va dolzarb muammolarni hal qilishdir.

DXSH loyihalarini amalga oshirish yuqori sifatli infratuzilmani rivojlantirishga mamlakatni yirik iqtisodiy o'sishga ish o'rinlarini yaratish va soliqqa tortiladigan daromadlarning ko'paytirilishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shu munosabat bilan oxirgi yillarda DXSH loyihalarini yuzasidan paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan qonun va dasturlar ishlab chiqilmoqda. DXSH loyihalarining samaradorligini hattoki rivojlangan davlatlar ham tan olgan va uni yanada rivojlantirish ustida ishlar olib borishmoqda.

Sohalar kesimida DXSh tamoyillari asosida amalga oshirilgan loyihalar




1-rasm Manba: Davlat Xususiy Sherikchilik loyihalarini amalga oshirish departamenti

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tashkil etilgan bo‘lib, u respublikaning mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo‘yicha ishlar olib bormoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Butun O‘zbekiston bo‘yicha eng ko‘p loyiha suv xo‘jaligida 463 ta amalga oshirilganligini aniqlash mumkin. Keyingi navbatda esa isitish tizimida 220 ta loyiha, ta’limda 91 ta loyiha, Ekologiya sohasida 67 ta loyihalar ishga tushirilgan. Sog‘liqni saqlash hamda madaniyat sohasiga ham ko‘zga ko‘rinarli darajada loyihalar moliyalashtirilgan. Bu o‘z navbatida mamlakatda yangi ish o‘rinlarini yaratishga, kadrlarni malakali bo‘lishga undaydi. Shu munosabat bilan nafaqat jamiyat balki davlat iqtisodiyotini rivojlanishiga iqtisodiy barqarorlikka erishishini ta’minlaydi.

So‘nggi yillarda davlat budjetining umumiy o‘rta ta’limga xarajatlari 2022-yilga nisbatan 19,7% ga oshdi, hamda 35 932,5 mlrd so‘m tasdiqlangan holda 39 682,5 mlrd so‘mga ijro etildi. Xarajatlar asosan ish haqining oshishi, hamda ta’lim muassasalarida ishlaydigan ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini to‘lash uchun qo‘shimcha mablag‘lar ajratish hisobiga tasdiqlangan parametrlarga nisbatan oshgan.

Navoiy viloyatida DXSH loyihalari asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qamrovi to‘g‘risida ma’lumot



Jadval ma’lumotlaridan shular ma’lum bo‘ldiki, maktabgacha ta’lim muassasalarining umumiy soni bo‘yicha tahlil qilganimizda Xatirchi tumani yuqori o‘ringa ega bo‘lsada, bolalarni qamrab olish bo‘yicha kam foizni tashkil etadi. Chunki bu hududlarda oilaviy maktabgacha ta’lim muassasalarining soni yuqori. Undan keyin

Qiziltepa tumanida maktabgacha ta'lim muassalarining soni 177 tani tashkil etib, bolalarni qamrab olish darajasi 75,6 % ni tashkil etadi.

Ushbu tashkilotlarda bolalar qamrovi bo'yicha agar tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori o'rinda Zarafshon shahri 98.8 %, Navoiy shahar 96,7%, G'ozg'on shahar 91,9%, Uchquduq tumani 89,1%, Konimex tumani 80,8%ni tashkil etadi. Yana Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, bunda Xatirchi tumanida 414 ta ikkinchi o'rinda Qiziltepa tumani 140 Navbahor tumanida 124 ta, Karmana tumani 102 tadan iborat.

Shundan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalarning qamrovi bo'yicha eng yuqori o'rinda Xatirchi tumani 9261 ta bolani, keyingi o'rinda Navbahor tumani 4245ta, Karmana tumani 3896ta bola, Qiziltepa tumani 3562 ta bolani qamrab olgan.

Shuni aytib o'tishimiz lozimki, Davlat tomonidan qo'yilgan dolzarb maqsad hamda vazifalar, xalqaro moliya institutlarining tavsiyalari hamda Davlat xususiy sherikchiligining qonunchiligiga kiritilgan joriy o'zgarishlardan kelib chiqib, Davlat xususiy sherikchiligi sohasining O'zbekistondagi o'zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan. Shuningdek, unda Davlat xususiy sherikchiligi loyihalari uchun yangi sektorlarni aniqlash bo'yicha har tomonlama fikr almashish, g'oyalar va strategiyalarni ilgari surish, Davlat xususiy sherikchiligi loyihalarining samaradorligini oshirish va raqamlashtirishni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

TAKLIF VA XULOSALAR

DXSH loyihalarini o'zimizning sharoitimizga (ekeologik) moslashtirib hayotga tadbiq etish lozim. Loyihalarning jamiyatning barcha qatlami uchun teng manfaat ko'rishini ta'minlash strategiyalarini ishlab chiqish.

DXSH loyihalarini moliyalashtirishning takomillashtirish bo'yicha ilmiy ish qilish davlat va jamiyat uchun foyda olib keladi. Yangi usullarni masalan (green finance, crowd funding) larni o'rganish. Kafolatlar va subsidiyalarning davlat byudjetiga ta'sirini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish kerak. Mahalliy tadbirkorlar va xususiy sektorni loyihalarga faol ishtirok etishga undash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib boorish mumkin.

“Smart city” dasturlari orqali shahar infratuzilmasini rivojlantirishda DXSH orqali aqlli shahar konsepsiyasini joriy qilish. Kelajakda ilmiy izlanish ishlarini olib borishda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun “yashil” texnologiyalarni DXSH loyihalarida qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish mumkin. DXSH loyihalarini shaffofligini ta'minlash uchun ochiq ma'lumotlar platformalarini yaratish yoki ulardan foydalanish mumkin. Jahon bo'yicha DXSH loyihalarida xalqaro va mintaqaviy hamkorlik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish mumkin.

Dxsh loyihalarini tadqiq qilishda yuqoridagi yo'nalishlar davlat va xususiy sektorning samarali hamkorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kelgusidagi

tadqiqotlar loyihalarning samarali faoliyatini ta'minlaydi. DXSH asosidagi loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshishini kafolatlaydi.

- DXSh loyihalarini samaradorligiga erishishda davlat va xususiy sektor o'rtasida xavf-xatarni qanchalik to'g'ri taqsimlanganiga bog'liq. Rollarning adolatli va aniq taqsimlanishi davlat ham, xususiy sektor ham mas'uliyatni mutanosib ravishda taqsimlashini ta'minlaydi.

- Aloqalarning qonuniyligi va mustahkam asoslari: Uchinchidan, bu hamkorliklarning huquqiy asoslari va mustahkam asoslari ularning muvaffaqiyati uchun zarur. Aniq, shaffof va ijro etilishi mumkin bo'lgan huquqiy tizim barcha tomonlar o'z huquqlari, majburiyatlari va nizolarni hal etish mexanizmlarini tushunishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

- DXShlarni yanada rivojlantirish uchun xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli tajribasiga tayanish zarur, ular davlat-xususiy sheriklik yaxshi shakllangan huquqiy va institutsional yondashuv asosida rivojlangan. Bu mamlakatlarda DXShlarni ishlab chiqish loyiha natijalarining sifati va barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish bilan mos keladi.

- DXSH loyihalarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yechimlarni ko'rib chiqish kerak:

- DXSh loyihalari uchun aniq huquqiy baza va tartibga soluvchi organlarni ishlab chiqish: DXSh loyihalari uchun mustahkam huquqiy bazani ishlab chiqish zarur. Bu loyihada ishtirok etayotgan har bir tomonning o'zaro kelishuvlari va majburiyatlarini aniq belgilashni o'z ichiga oladi.

- Bu investitsiyalarni yanada jozibador va xavfsiz qilishga yordam beradi.

- Bu potentsial xavflarni aniqlashga va loyiha muvaffaqiyatsizlikka uchramasligi uchun ularni erta yumshatishga yordam beradi.

- Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi aloqa va hamkorlikni mustahkamlash: Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzluksiz aloqa va hamkorlik DXSh muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Muntazam seminarlar, o'quv dasturlari va birgalikdagi sa'y-harakatlar ishonchni mustahkamlash va hamkorlik samaradorligini oshirishga yordam beradi.

- Loyihalarga jamoatchilik fikri va ijtimoiy ehtiyojlarni kiritish: Loyihalarni amalga oshirishda jamoatchilik fikri va ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish ham juda muhimdir. Loyihalarning mahalliy aholi talablariga javob berishini ta'minlash ularning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi va ularni butun jamiyat

- Ushbu muammolarni hal qilish O'zbekistonda DXSH loyihalarining muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi.

- Bu nafaqat biznesning o'zini rivojlantirishiga yordam beradi, balki jamiyatning umumiy farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

• Korporativ tuzilmaning loyihalardagi ishtiroki ijtimoiy reklama vazifasini bajaradi, bu esa xususiy sektorning ijtimoiy mas’uliyatini kengaytiradi.

Aytib o‘tish munkinki, mutaxassislar fikri, yoki ularning fikr-mulohazasiga va olib borilgan tadqiqotlarimizga tayangan holda davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishishda DXSH loyihalarining o‘rni beqiyos..

Adabiyotlar /Literatura/Reference

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF60son, [https:// lex.uz/uz/docs/5841063](https://lex.uz/uz/docs/5841063)
2. The World Bank. (2019). What are public private partnerships?. <https://ppp.worldbank.org/publicprivatepartnership/overview/whatarepublicprivatepartnerships>.
3. Djumaniyozov Ulug‘bek Ilxamovich DXSH asosida Korporativ boshqaruvni rivojlantirish ayrim nazariy-uslubiy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion-texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali № 3 (2017) May-iyun
4. Norment, R. Fundamentals of Public-Private Partner–ships (ДХШ) / R. Norment // The National Council for Public –Private Partnerships, –2007.
5. Rosenau, P. Public–Private policy partnerships / P. Rosenau // Cambridge, MA: MIT press, 2000
6. Bahronova, S. B. (2024). Iqtisodiy fanlarni o'qitishda raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Indexing, 1(1).
7. Bahronova, S. B. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR-INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI: AI (sun'iy intellect), virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR), content, Interaktiv o 'quv platformalari, Raqamli mentorlar va yordamchilar. Indexing, 1(1).
8. Baxshulloyevna, B. S. (2024). KORXONANING INNOVATSION ISHLANMALARINI MOLIYALASHTIRISHNI BAHOLASH USULLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH. TADQIQOTLAR. UZ, 50(1), 183-190.
9. Abdinabiyevna, S. S., & Bekpo‘lotjonovna, X. J. A. (2024). KICHIK BIZNES KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING YO ‘LLARI. TADQIQOTLAR. UZ, 50(1), 45-51.
10. Bahronova, S. (2023). MOLIYAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHAMIYATI. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 250-252.